TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O‘G‘LI

IQTISODIY PROTSESSDA ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHGA KO‘MAKLASHUVCHI SHAXSLAR ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISH (NAZARIY-HUQUQIY VA PROTSESSUAL JIHATLARI)

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va mediatsiya

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 347.9 (043.5) (575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O‘G‘LI

IQTISODIY PROTSESSDA ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHGA KO‘MAKLASHUVCHI SHAXSLAR ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISH (NAZARIY-HUQUQIY VA PROTSESSUAL JIHATLARI)

12.00.04 – Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va mediatsiya

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Yu589 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Esanova Zamira Normurotovna** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Yakubov Axtam Nusratilloyevich** yuridik fanlar doktori, dotsent
	Berdiyarov Raxmatjon Tojinorovich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respbulikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 16-mart soat 10.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1240-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 29-fevral kuni tarqatildi.

(2024-yil 29-fevral 42-raqamli reestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Yu. Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar nomzodi, professor

B.K. Xodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tadbirkorlik subyektlari va investorlar soni kun sayin ortib bormoqda. Ularning o‘z huquqi va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, sud ishlarini yuritish jarayonida ishtirokchilar o‘rtasida tortishuv va taraflarning tengligini ta’minlash, nizolarni o‘z vaqtida hal qilish, ish bo‘yicha qonuniy, asosli va adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish va sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish butun dunyo sudlari oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Heritage Foundation tadqiqot muassasasi tomonidan e’lon qilingan “Iqtisodiy erkinlik indeksi — 2023” reytingida O‘zbekiston 56,5 ball to‘plagan holda 176 ta davlat orasida 109-o‘rinni egallagan. Indeksning metodologiyasiga ko‘ra, O‘zbekistonning iqtisodiyoti asosan “erkin bo‘lmagan mamlakatlar” guruhida qolganligini ko‘rsatdi. Jumladan, eng yomon ko‘rsatkich “sud samaradorligi” (-37,8) yo‘nalishi bo‘ldi[1]. Bu esa sud tizimi, uning ishtirokchilari (odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar)ning doirasini, huquqiy maqomini va tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish hamda sudlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va qo‘llash lozimligini ko‘rsatib turibdi.

Jahonda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, tadbirkorlar va investorlarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning iqtisodiy sud ishlarini yuritishda onlayn ishtirok etishi hamda ularning faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning protsessual maqomini belgilash, ularning sud jarayonida huquq va majburiyatlarini to‘laqonli amalga oshirishga imkon yaratish birlamchi vazifalar sifatida belgilangan. Hozirda jahonda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar faoliyatida sun’iy intellekt texnologiyalari (3D, Forensic Toolkit, Yolo, ChatGPT, Kudo, Boostlingo, Languageline va Lie detector) qo‘llanilib kelinmoqda.

Respublikamizda tadbirkorlarning sudlardan to‘la rozi bo‘lishi va sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- son Farmonida sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g‘ov va to‘siqlarni bartaraf etish orqali tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish belgilangan[2]. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar ishtirokida ko‘rilgan ishlar 2021-yil davomida 436 tani, 2022-yil davomida 1068 tani va 2023-yil (11 oy)da esa 713 tani[3] tashkil etmoqda. Shundan *guvoh* ishtirokida 2021-yilda 111 ta, 2022-yilda 206 ta, 2023-yilda 255 ta, *ekspert* ishtirokida 2021-yilda 36 ta, 2022-yilda 77 ta, 2023-yilda 58 ta,

[1] https://www.heritage.org/index/country/uzbekistan
[2] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023-yil 04-dekabrdagi 07/15-445 sonli xati.

mutaxassis ishtirokida 2021-yilda 272 ta, 2022-yilda 753 ta, 2023-yilda 370 ta, *tarjimon* ishtirokida 2021-yilda 17 ta, 2022-yilda 32 ta, 2023-yil davomida esa 30 ta ish ko‘rib chiqilgan[4]. Bundan ko‘rinib turibdiki, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar ishtiroki va maqomini yanada takomillashtirish, ishtirokchilar doirasini ko‘rib chiqish, huquq subyektliligini aniqlash, so‘roq qilish bilan bog‘liq yangi moddalar bilan boyitish, sudlar – ekspertlar o‘rtasidagi axborot hamkorligini barcha turlarini ta’minlashga qaratilgan axborot tizimini joriy etish, huquq va majburiyatlarini kengaytirish va boshqa masalalar protsessual huquq normalarida ifodalanmaganligi mazkur muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (2018), “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi (2010), “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi (2021), “Mediatsiya to‘g‘risida”gi (2018), “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi (2006) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6256-son va 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-11-son Farmonlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida keltirilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiya mavzusi shu kunga qadar O‘zbekiston Respublikasida mustaqil tadqiqot obyekti sifatida doktorlik dissertatsiyasi darajasida tadqiq qilinmagan. O‘zbekistonda Sh.Sh.Shoraxmetov, E.E.Egamberdiyev, M.M.Mamasiddiqov, Z.N.Esanova, D.Yu.Xabibullayev, F.X.Otaxonov, N.F.Imomov, T.A.Umarov, F.B.Ibratova, Q.S.Avezov, R.T.Berdiyarov, X.B.Abduraxmanova, X.B.Burxanxodjayeva, O.Sh.Pirmatov va I.M.Salimovalarning tadqiqot ishlarida u yoki bu darajada iqtisodiy protsessual huquqida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning tutgan o‘rni, maqomi va taqdim etgan ma’lumotlar (xulosalar)ning dalillar sifatida o‘rni va ahamiyati yoritilgan bo‘lib, biroq bu borada mamlakatimiz olimlari iqtisodiy protsessda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning ishtiroki bo‘yicha kompleks tadqiqotlar olib borilmagan. Shuningdek, ushbu mavzu doirasida MDH davlatlari olimlari A.V.Vanyarxo, V.V.Yarkov, E.A.Tresheva, A.T.Bonner, M.I.Kleandrov, I.N.Lukyanova, I.V.Reshetnikova, M.V.Jijina, S.P.Vorojbit, A.A.Vlasov, E.R.Rossinskaya, T.Saxnova, M.S.Shakaryan va V.V.Molchanovlar muayyan tadqiqot ishlarini olib borganlar. G‘arbiy Yevropa va AQSH davlatlari

[4] O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 19-avgustdagi 07/14-10964-275 sonli xati.

olimlaridan Steven W.Schneider, Colin Tapper, John O'Hare & Kevin Browne[5]lar o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan "Iqtisodiy protsessda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar ishtirokini takomillashtirish" nomli ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiy sud ishlarini yuritishda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar ishtirokining huquqiy asoslarini takomillashtirish va bu boradagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan takliflar hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar faoliyatining protsessual jihatlarini tahlil qilish orqali takliflar ishlab chiqish;

sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning iqtisodiy protsessdagi o'rni (huquqiy maqomi)ni ochib berishga qaratilgan tavsiyalar berish;

odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning protsessual huquq va muomala layoqatining ilmiy-amaliy tomonlarini yoritishga doir tavsiyalarni asoslash;

guvoh, tarjimon ekspert va mutaxassislarning huquq va majburiyatlarini protsessual muammolarini tadqiq etish orqali takliflar ishlab chiqish;

guvoh, tarjimon ekspertlarning iqtisodiy sud ishlarini yuritish jarayondagi javobgarligini huquqiy va protsessual xususiyatlarini ochib berishga oid iqtisodiy protsessual qonunchiligi va sud amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida iqtisodiy sud ishlarini yuritishda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning ishtiroki natijasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini iqtisodiy protsessda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar ishtirokini huquqiy tartibga solishga oid nazariy g'oyalar, bu boradagi muammolar, protsessual qonunchilik normalari va sud hujjatlari tashkil etadi.

Tadiqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida umumlashtirish, tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, so'rovnoma o'tkazish, aniqlashtirish, statistik va amaliyot materiallarini o'rganish hamda qiyosiy-huquqiy tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

arbitrlar, arbitraj tarkibi tomonidan tayinlangan ekspertlar, arbitraj muassasasining xodimlari, hakamlik sudyalari – arbitraj yoki hakamlik muhokamasi davomida o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan holatlar to'g'risida guvoh sifatida chaqirilishi va so'roq qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslar ekanligi asoslantirilgan;

doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilar, guvohlar va xolislarga odatdagi mashg'ulotlaridan qoldirilganligi (chalg'itganligi) uchun to'lov miqdori amalda ularning sarflangan vaqti va belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam

[5] Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblanishi, bunda to‘lovning aniq miqdori belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori summasini mazkur oyda mavjud ish kunlariga nisbatini majburiyatlar bajarilgan ish kunlariga ko‘paytirish orqali aniqlanishi asoslab berilgan;

davlat sud-ekspertiza muassasasi va nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti ekspertlarining faoliyatini kasbiy layoqatliligi, o‘tkazilgan sud ekspertizalarining sifati va boshqa mezonlarga asosan reyting tizimi asosida baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha to‘plangan ballardan kelib chiqib hisoblanishi asoslantirib berilgan;

arbitraj muhokamasi bilan bog‘liq ishlarni yuritishda arizaga ilova sifatida chet tilida tuzilgan hujjatlarni iqtisodiy sudga taqdim etilayotganda, mazkur hujjatlarga ularning davlat tilida yoki sud ishlari yuritilayotgan tildagi tegishli tarzda tasdiqlangan tarjimasi qo‘shib topshirilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar doirasi aniqlashtirilgan;

sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ning iqtisodiy protsessdagi huquqiy maqomi asoslantirilgan;

odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning protsessual huquq va muomala layoqatini aniqlashtirilgan;

odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning huquq, majburiyatlari va javobgarlik masalalarini takomillashtirilgan;

tarjimonlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asosning yo‘qligi bois “Sud tarjimoni to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqilish lozimligi asoslab berilgan;

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari har bir bob oxirida va ish yakunida aksini topgan nazariy hamda amaliy xulosalar, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan shuningdek, ishda Iqtisodiy ishlar bo‘yicha Toshkent shahar sudining sudlov hay’ati (2023-yil yanvar-fevral oylari), iqtisodiy ishlar bo‘yicha Toshkent tumanlararo sudi (2022-yil dekabr oyi) va iqtisodiy ishlar bo‘yicha Zangiota tumanlararo sudi (2021-yil may-avgust oylari)ning ish materiallari hamda tadqiqotchi tomonidan sudyalar, sud xodimlari, ekspert, mutaxassis, tarjimonlar va professor-o‘qituvchilar, yuridik xizmat xodimlari, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar va yurisprudensiya yo‘nalishi talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada bayon qilingan materiallardan “Iqtisodiy protsessual huquqi” va boshqa maxsus modullarni o‘qitishda hamda mavzuga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati iqtisodiy sud ishlarini yuritishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomilashtirishda, shuningdek, iqtisodiy ishlar bo‘yicha sud amaliyotida va davlat organlarining qonun va norma ijodkorligi faoliyatida foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar maqomini takomillashtirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

arbitrlar, arbitraj tarkibi tomonidan tayinlangan ekspertlar, arbitraj muassasasining xodimlari, hakamlik sudyalari – arbitraj yoki hakamlik muhokamasi davomida o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan holatlar to‘g‘risida guvoh sifatida chaqirilishi va so‘roq qilinishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 16-maydagi O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ–769-sonli Qonuni 1-moddasining 12-bandini ishlab chiqilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 6-fevraldagi 06-13/11-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi natijasida arbitrlar va ular tomonidan tayinlangan ekspertlar hamda hakamlik sudyalarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga xizmat qilgan;

doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilar, guvohlar va xolislarga odatdagi mashg‘ulotlaridan qoldirilganligi (chalg‘itganligi) uchun to‘lov miqdori amalda ularning sarflangan vaqti va belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblanishi, bunda to‘lovning aniq miqdori belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori summasini mazkur oyda mavjud ish kunlariga nisbatini majburiyatlar bajarilgan ish kunlariga ko‘paytirish orqali aniqlanishiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi RCM -570-son Qarori bilan tasdiqlangan “Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi 12-15-131-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklif qabul qilinishi natijasida guvohlarga sudga kelgan xarajatlarni to‘lash va uni olish huquqini takomillashishiga xizmat qilgan;

davlat sud-ekspertiza muassasasi va nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti ekspertlarining faoliyatini kasbiy layoqatliligi, o‘tkazilgan sud ekspertizalarining sifati va boshqa mezonlarga asosan reyting tizimi asosida baholash ko‘rsatkichlari bo‘yicha to‘plangan ballardan kelib chiqib hisoblanishi asoslantirilgan doir taklif Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-dekabrdagi 705-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizomning 13-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi 12-15-131-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklif qabul qilinishi natijasida sud ekspertlari faoliyatini reytingini aniqlab beradi va ularni ishlash faoliyatini rag‘batlantirib borishiga xizmat qilgan;

arbitraj muhokamasi bilan bog‘liq ishlarni yuritishda arizaga ilova sifatida chet tilida tuzilgan hujjatlarni iqtisodiy sudga taqdim etilayotganda, mazkur hujjatlarga ularning davlat tilida yoki sud ishlari yuritilayotgan tildagi tegishli tarzda tasdiqlangan tarjimasi qo‘shib topshirilishiga oid taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 16-maydagi O‘zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi

O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ–769-sonli Qonuni 1-moddasining 6-bandini bayon qilinishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 6-fevraldagi 06-13/11-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi natijasida arbitraj muhokamasiga ko‘maklashish bilan bog‘liq ishlarni yuritishda arizaga ilova sifatida hamda arbitrajning hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi arizaga tarjimasini qo‘shib topshirilishi davlat tili va sud ishlari yuritilayotgan til prinsipini amalda mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda va ilmiy seminarlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta ilmiy-ommabop risola, 8 ta ilmiy maqola (2 tasi xorijiy nashrlarda), 9 ta tezis shaklda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, sakkiz paragrafni qamrab olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarga nazariy-huquqiy tavsif”** deb nomlangan birinchi bobida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar tushunchasi, ularning tasnifi, huquq subyektliligi ya’ni protsessual huquq va muomala layoqati tushunchalariga doir tahlillar amalga oshirilgan.

Odil sudlovning vazifasi ziddiyatli vaziyatlarni nizosiz holga keltiradigan qonuniy, asosli va adolatli sud hujjatlirini chiqarishdan iboratdir. Shu o‘rinda aytish joizki, odil sudlovni ta’minlashda bir qancha asosiy konsepsiyalar dunyo davlatlari tajribasida qo‘llanilib kelinmoqda. Olimlarning fikricha asosiylari sifatida “procedural justice” (protsessual odil sudlov), “procedural fairness (protsessual adolat)” konsepsiyalar ilgari surilmoqda. “Procedural justice” (protsessual odil sudlov) konsepsiyasiga ko‘ra dalillar va isbotlash qonuniy bo‘lishi, qonuniylikni protsessual odillik orqali qurish mumkinligi, barcha jarayonlar qonun (kodeks)dagi normalarga asoslanishi, dalillarni tinglash, teng imkoniyatlar ega bo‘lish va taraflarga bir xil hurmatda bo‘lish kerakligi ta’kidlanadi. “Procedural justice” (protsessual odil sudlov) konsepsiyasining elementlari sifatida insonlarning qadr-qimmatini hurmat qilish

(respect), uchrashuv vaqtida ishtirokchilarga ovoz berish (voice-so‘z, ovoz berish) huquqini taqdim etish, qaror qabul qilishda xolis va shaffof bo‘lish (neutrality), ishonchli hisoblangan (trustworthiness) asoslar (dalillar)ni topshirish keltirib o‘tiladi. Aynan tadqiqot ishimizda ham odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarga sud jarayonida hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, ularga so‘z berish, guvoh, ekspert, mutaxassis va tarjimon qaror qabul qilishda xolis va shaffof bo‘lishi hamda ishga oid dalillarni isbotlashi keltirilgan. Ikkinchi “procedural fairness” (protsessual adolat) konsepsiyasida jarayonning muayyan elementlarini yaqinlashtiradi va oydinlashtiradi. Mazkur konsepsiyasida sud bilan aloqada bo‘lganlar sud jarayonidan, atrofdagilardan va insonlarning muomalasidan prosessual adolat haqida tasavvur hosil qiladi. “Procedural fairness” (protsessual adolat) konsepsiyasida ichki ishonch, insof, vijdon va insonparvarlik qoidalariga, real sharoit, holat va vaziyatga qaraladi. “Procedural fairness” (protsessual adolat) konsepsiyasining asosiy elementlari sifatida “voice” taraflarning o‘z fikr-mulohazalarini bildirishi orqali ishtirok etish layoqati, “neutrality” xolis qaror qabul qilishda asosiy tamoyillarni qo‘llashi , “respect” insonlarga xushmuomala va hurmat bilan munosabatda bo‘lish, “trust” qaror qabul qiluvchining ichki ishonchiga asoslanishi, “understanding” sud jarayoni ishtirokchilari sud qarorlari va ularni qanday qabul qilinishini tushunishi, “helpfullness” taraflar sud ishtirokchilarini qonunda ruxsat etilgan darajada shaxsiy holatiga qiziqqan deb bilishiga e’tibor qaratiladi. “Procedural fairness” (protsessual adolat) konsepsiyasiga eng ko‘p e’tibor qaratadigan va sudlar faoliyatida qo‘llaydigan davlatlar sifatida AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar, Hindiston va Yangi Zelandiya keltirib o‘tiladi. Tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan takliflar, tavsiyalar va xulosalar “procedural fairness” (protsessual adolat) konsepsiyasiga mos kelishi va ular aynan profilaktik choralar (normalar) sifatida baholanishi tadqiq va tahlil qilindi. “Procedural fairness” (protsessual adolat) konsepsiyasiga eng ko‘p e’tibor qaratadigan va sudlar faoliyatida qo‘llaydigan davlatlar sifatida AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar, Hindiston va Yangi Zelandiya keltirib o‘tiladi.

Muallif O‘zbekistonda ham iqtisodiy sud ishlarini yuritishda iqtisodiy sudlar asosan “procedural justice” (protsessual odil sudlov) konsepsiyasi bilan bir qatorda “procedural fairness” (protsessual adolat) konsepsiyasini rivojlantirishni va qo‘llashni ta’kidlab o‘tadi. Bu konsepsiyani ilgari surish natijasida quyidagi natijaga erishish mumkin bo‘ladi:

1) ish bo‘yicha dalillar tarjimonlarning tarjimasi, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning xulosalari va mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari) bilan aniqlanishi orqali iqtisodiy sudlar tomonidan qabul qilinayotgan hal qiluv qarori va qarorini qonuniy, asosli va adolatli chiqarilishiga erishiladi;

2) mazkur konsepsiyada tarjimonlarning tarjimasi, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning xulosalari va mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari)ning to‘g‘ri, to‘liq va xolis bo‘lishi natijasida nizolarni birinchi instansiyani o‘zida hal qilinishi hamda ularni yuqori instansiyalarda ko‘rishda ish yuklamasini kamaytirish va vaqtni tejashga olib keladi;

3) tarjimonlarning tarjimasi, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning xulosalari va mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari)ga baho berishda iqtisodiy sud

sudyalari uchun ichki ishonch va insonparvarligi asosida yuzasidan nizoni ko‘rib chiqish, real holatlarni eshitish va hal qilishda muhim hisoblanadi.

Tadqiqot ishida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar tushunchasi, tarjimon va mutaxassis tushunchalari qator olimlar (Z.N.Esanova, R.T.Berdiyarov, X.B.Abduraxmonova, F.B.Ibratova, V.V.Yarkov, A.V.Vanyarxo, A.P.Rijakov, A.V.Strunkina, K.A.Kuznetsova, V.A.Verbitskaya, A.T.Bonner va boshqalar)ning qarashlari tahlil qilinib, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar tushunchasi, tarjimon va mutaxassis tushunchalariga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, *odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar* – iqtisodiy sudlar (sudyalar) tomonidan yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosiga binoan ish bo‘yicha jalb qilingan, ish natijasidan manfaatdor bo‘lmagan guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ekanligi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, *tarjimon* – tarjima qilish uchun zarur tillarni biladigan, *voyaga yetgan, ish natijasidan manfaatdor bo‘lmagan* hamda sud tomonidan tayinlangan yoki *ishda ishtirok etuvchi shaxslar iltimosiga* binoan sud majlisida ishtirok etish uchun jalb qilish to‘g‘risida ajrim chiqarilgan shaxs tarjimon bo‘lishi, shuningdek mutaxassis – *tegishli oliy ma’lumotga, alohida hollarda esa o‘rta-maxsus, kasb-hunar ma’lumotiga ega bo‘lgan,* maslahatlar (tushuntirishlar) berish va ilmiy-texnika vositalarini qo‘llashda yordam ko‘rsatish yo‘li bilan dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashda ko‘maklashish maqsadida fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida *zarur* bilim va malakaga ega bo‘lgan, voyaga yetgan, ish natijasidan manfaatdor bo‘lmagan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalb qilinishi mumkinligi haqida xulosalar ilgari surilgan.

Dissertant fikricha iqtisodiy sud ishlarini yuritish ishtirokchilaridan birortasi tomonidan tarjimon vazifalarini bajarish imkoniyatiga ega emas, bu tarjimaning to‘liqligi va to‘g‘riligiga, shuningdek uning ishonchliligiga shubha tug‘dirishi mumkinligini aytib o‘tadi. Muallif fikricha tarjimon bir tildan ikkinchi tilga amalga oshirgan tarjimasini ishonchli *aks-sado (faithful echo)* deb qiyoslash mumkin. Sababi bir tildan ikkinchi tilga qilingan tarjima aniq va ravon, o‘z holidek ikkinchi manzilga yetib borishi kerak bo‘ladi.

Dissertant tomonidan ushbu bob doirasida bir qator olimlar (Z.N.Esanova, S.S.Gulyamov, A.S.Sidikov, M.S.Shakaryan V.V.Petrova I.Kleandrov Y.A.Tresheva S.Y.Channov va boshqalar)ning sudya yordamchisining protsessdagi o‘rnini aniqlashtirish borasidagi qarashlari tahlil etilib, muallif tomonidan sudyaning yordamchisi (sud majlisi kotibi) iqtisodiy protsess ishtirokchilarining yana bir alohida protsessual guruhini tashkil qilishi, iqtisodiy sud apparati xodimlari sifatida protsessual huquqiy munosabatlarga kirishishi, sudya yordamchisi alohida subyekt sifatida bo‘lishi va davlat xizmatini amalga oshiruvchi kasbiy faoliyati deb keltirilgan.

Bundan tashqari, *sud tomonidan sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ni sud protsessiga jalb qilish, dastlabki tanlash ishda ishtirok etuvchi shaxslarning xohish-irodasiga hech qanday tarzda bog‘liq emas*. Dissertant ta’kidlashicha sudya yordamchisi har bir sud protsessida ishtirok etadi va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslardan farqli ravishda jinoiy javobgarlikka emas, intizomiy javobgarlik choralari qo‘llaniladi. Tadqiqotchi sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ni

iqtisodiy protsessning odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar qatoriga kiritib bo‘lmaydi, shuningdek yuridik texnik qoidalarga rioya qilgan holda IPKda sud tarkibi qatoriga kiritish (alohida subyekt sifatida) va huquqiy maqomini alohida “Sud tarkibi”nomli bobga tegishli bo‘lgan normada aks ettirish lozim degan ilmiy-amaliy xulosaga kelgan.

Dissertant bir qator olimlar (Q.S.Avezov, N.F.Imomov, V.V.Yarkov, M.A.Nikishenkova, N.I.Matuzov, O.S.Ioffe va boshqalar)ning iqtisodiy sud ishlarini yurtishda huquq subyektliligi – huquq normalarida nazarda tutilgan huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo‘lish qobiliyati (imkoniyati) ya’ni protsessual huquq layoqati va muomala layoqati mavjudligi, unga ega bo‘lishi tahlil qilib, tadqiqot doirasida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning protsessual huquqiy layoqati mavjudligi, sudda shaxsan o‘zi ishtirok etishi lozimligi, ular protsessda vakillari orqali ishtirok etishlariga yo‘l qo‘yilmasligi, yetarli malaka va bilim hamda ish uchun ahamiyatli ma’lumotga ega bo‘lishi lozimligi, voyaga yetganligida aks etishini ta’kidlaydi. Shundan kelib chiqib, muallif tomonidan odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning protsessual huquq layoqati va protsessual muomala layoqati tushunchalariga quyidagicha ta’rif ishlab chiqildi:

Protsessual huquq layoqati – odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning sudda protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi.

Protsessual muomala layoqati – sudda o‘z protsessual huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish layoqati voyaga yetgan (guvohdan tashqari) odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarga tegishlidir. Voyaga yetmagan shaxs (guvoh)larning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi.

Dissertatsiyaning “**Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning huquqiy maqomi”** deb nomlangan ikkinchi bobida guvohning huquqiy maqomi, tarjimonning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi va ishtiroki hamda ekspert va mutaxassisning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi hamda ishda ishtirok etishni takomillashtirish muammolari va ularni tahlili amalga oshirilgan.

Dissertant IPHda haqiqatda ikki turdagi guvohlarni iqtisodiy protsessga jalb qilish mumkin deb hisoblaydi.

Birinchi guruhga ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar – ular ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosiga binoan protsessga jalb qilingan shaxslardan iborat. Ushbu shaxslar sudga “birlamchi dalillar” – taraflar va boshqa shaxslar tomonidan taqdim etilgan boshqa ish materiallarida mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni taqdim etadilar.

Ikkinchi guruh - bu ishni ko‘rayotgan sudning ixtiyorida bo‘lgan boshqa turdagi dalillarni aniqlash va tekshirish uchun iqtisodiy sud tashabbusi bilan sud majlisiga chaqirilgan shaxslar: bular sud tomonidan yozma dalil sifatida ko‘rib chiqilgan hujjat yoki sud tomonidan ko‘rib chiqilayotgan narsa ashyoviy dalil sifatida yaratilgan yoki o‘zgartirilganda sud qarorini tayyorlashda ishtirok etgan shaxslardir.

Lekin, mazkur tadqiqot ishida bir qator olimlar (I.B.Zokirov, V.V.Yarkov, M.I.Braginskiy va boshqalar)ning arbitraj (iqtisodiy) protsessda yozma va ashyoviy

dalillar guvohlarning ko‘rsatuvlariga nisbatan ishonchliroq sanalishi borasidagi fikrlari tahlil qilgan.

Ishni ma’lum bir isbotlash vositalari orqali tasdiqlanishi zarur bo‘lgan holatlarni boshqa hech qanday isbotlash vositalari bilan tasdiqlash mumkin emas. Qarz beruvchi yuridik shaxs bo‘lganida yoki fuqarolar o‘rtasida tuzilgan qarz shartnomasining summasi eng kam ish haqining o‘n baravaridan ortiq bo‘lgan hollarda qarz shartnomasini oddiy yozma shaklda tuzilishi talab qilinadi.

Sudlar qarz shartnomasining oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib kelmasligini nazarda tutishlari lozim. Taraflar bunday holda guvohlarning ko‘rsatuvlariga asoslanishga haqli emas, lekin bu ularni yozma va boshqa dalillar keltirish imkoniyatidan mahrum qilmaydi. Yozma shakl og‘zaki shakl (guvoh ko‘rsatuvi)dan ko‘ra bitimning haqiqiy aniqlashga yaxshiroq yordam beradi va zarur hollarda uni tegishli davlat organlari (ekspert) tomonidan tekshirilishini yengillashtiradi. Muallif fikricha, yozma dalillarning aniq mavjudligi guvoh ko‘rsatuviga qaraganda aniqroq, lekin guvoh ko‘rsatuvidan foydalanish taraflarning huquqlari ekanligini ta’kidlaydi. Bu borada dissertant “Rules of Evidence” (dalillik qoidasi) doktrinasidan kelib chiqib, dalillarni belgilangan qoiadalar va olish tartibiga rioya etish, ishonchli va tegishli dalillarni qabul qilishligini ta’kidlanadi.

Bugungi kunda dunyoda iqtisodiy sud ishlarini yuritishda bir qancha doktrinalar mavjud. Jumladan, “witness testimony – guvoh ko‘rsatuvi”, “right to confrontation - qarama-qarshilik huquqi” “collaboration and cooperation – hamkorlik va koperatsiya” va boshqa doktrinalar (dissertatsiya va avtoreferatda batafsil) keltirilgan. Muallif tomonidan dissertatsiya doirasida iqtisodiy protsessual huquq (qonunchilik)da ko‘rsatuv berish va qasamyod qabul qilish (guvohning ayrim ma’lumotlarni oldindan bilib olib, ko‘rsatuvlarida shu detallarga urg‘u berishga tayyorgarlik qilgan holda sudga kelishini oldini olish) uchun mumkin bo‘lgan “Doctrine of Witness Testimony” (guvoh ko‘rsatuvi) doktrinasiga asosan guvoh ko’rsatuvlarini yuzlashtirish orqali olish va so‘roq qilish hamda to‘g‘riligini tekshirish imkonini beruvchi “Doctrine of Right to Confrontation” (qarama-qarshilik huquqi) doktrinasini hamda iqtisodiy protsessga ko‘maklashuvchi shaxslarni jalb qilish, ularni rag‘batlantirish, ishtirokini va ishlar samaradorligini oshirish, hamkorlikda ma’lumotlar almashinuvini ta’minlashga xizmat qiluvchi “Doctrine of Collaboration and Cooperation” (hamkorlik va koperatsiya) doktrinasini va undagi g‘oyalarni ilgari suradi hamda ushbu doktrinalardagi g‘oyalar iqtisodiy sud ishlarini yuritish sohasidagi munosabatlarni yanada tartibga solishga qaratilgan. Bu doktrinalarni ilgari surish natijasida O‘zbekistonda iqtisodiy sud ishlarini yuritishda quyidagi natijaga erishish mumkin bo‘ladi:

Birinchidan, guvohning ko‘rsatuvini aniqlashtirish va qasamyod qilish lozim (guvoh ko‘rsatuvini oldindan tayyorgarlik qilishini sindiradi);

Ikkinchidan, guvohni yuzlashtirish orqali so‘roq qilish va ko‘rsatuvini to‘g‘riligini tekshirish imkonini beradi;

Uchinchidan, iqtisodiy sud ishlarini yuritish jarayoniga ko‘maklashuvchi shaxslarni tezda jalb qilish, ularni rag‘batlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, organlar ichida hamkorlikni kengaytirish va ishlar samaradorligini oshirish.

Dissertant ushbu bob doirasida bir qator olimlar (D.Yu.Xabibullayev, A.Ya.Markov, T.I.Stesnova, S.P.Sherba va boshqalar)ning sudda tillarni bilmagan

ishtirokchilar tarjimon xizmatidan foydalangan holda o‘z ona tilida murojaat qilishga haqli ekanligi borasidagi fikrlarini tahlil qilib, xorijiy davlatlar Germaniyada “Qasamyod qilgan tarjimonlar to‘g‘risida”gi Qonun, Bavariya shtatining “Qasamyod qilgan tarjimonlar to‘g‘risida”gi Qonunni (22.12.2009 y. tahririda), Rossiya Federatsiyasida “Sud tarjimoni to‘g‘risida”gi Nizom loyihasi, Chexiyada “Sud tarjimoni to‘g‘risida”gi Qonun, Estoniyaning 2001-yildagi “Qasamyod qilgan tarjimonlar to‘g‘risida”gi Qonunchiligini o‘rgangan holda *dissertant tomonidan “Sud tarjimoni to‘g‘risida”gi Qonun ishlab chiqildi va uni tarjimonlar faoliyatini tartibga solishga qaratilganligi asoslantirildi.*

2023-yilda elektron plaftformasida keng jamoatchilik o‘rtasida onlayn so‘rovnoma o‘tkazilgan.

Tadqiqotchi tomonidan “sud tarjimoni faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat (qonun yoki qaror) ishlab chiqilish zaruriyati bormi?” kabi o‘tkazilgan so‘rovnomada 131 kishi qatnashgan va uni natijasiga ko‘ra 71 % respondent “ha” deb ovoz bergan bo‘lsa, 29 % respondent “yo‘q” deb ovoz bergan.

Tadqiqot ishida tadqiqotchi tarjimonni sud jarayonida ishtirok etish uchun jalb qilishda qiyinchilik tug‘diradigan holatlar sifatida:

Birinchidan, tegishli tildagi tarjimonni topish kerak;

Ikkinchidan, uning malakasiga ishonch hosil qilish lozim (tilni bilish darajasi yoki diplomi yuridik atamalardan mohirona foydalanishni anglatmaydi);

Uchinchidan, tarjimon shaxsiga u bilan turli protsessual harakatlarda samarali hamkorlik qilish uchun moslashish kerak (tarjimon o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lishi mumkin va bu qiyin bo‘ladi) deb hisoblaydi.

Ekspertning majburiyati ishda ishtirok etuvchi shaxslarning va ishda ishtirok etmayotgan boshqa shaxslarning qonun bilan qo‘riqlanadigan ma’lumot siri rejimini ta’minlash bo‘yicha huquqlarining kafolati hisoblanadi. Davlat siri, tijorat siri va boshqa qonunlar bilan qo‘riqlanadigan sirlarni qonunga xilof ravishda axborot to‘plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish javobgarlikka sabab bo‘ladi. *Dissertant ekspertga taqdim etilgan materiallarda sir bilan bog‘liq jihatlar mavjud bo‘lganda ularni sir saqlash haqida ogohlantirilishi asoslantirgan*. Mazkur jarayonga “professionalism and ethics” doktrinasi kasbiy va axloqiy va ma’lumotlarni sir saqlash muhim.

Dissertant ushbu bobda ekspertning yolg‘on xulosasi uning oldiga qo‘yilgan savollarga yolg‘on javoblar berishda ko‘rinishini tahlil qilib, bir qator olimlar (A.V.Vanyarxo, A.Y.Abdullayev, Sh.Sh.Suyunov va boshqalar)ning odil sudlovni amalga oshirishga yordam beradigan boshqa shaxs – ekspertga nisbatan jinoiy javobgarlik to‘g‘risida *ogohlantirish tartibini bekor qilish va uni o‘rniga ekspertning qasamyod qilish tartibini kiritish bo‘yicha* fikrlarini keltirib o‘tgan. *Qasamyod qilish tartibi bu jinoiy javobgarlikdan oldingi chora sifatida qaraladi.* Yana bir sabab ularning *sha’ni va qadr-qimmati ham kamsitilmasligi va shu orqali ularning asosiy huquqlari cheklanmasligi yoki e’tiborsiz qolmasligiga olib kelishi* mumkin.

Mutaxassisning noto‘g‘ri maslahati so‘roq paytida u tomonidan maxsus bilimlarni talab qiladigan holatlar to‘g‘risida noto‘g‘ri ma’lumot berish, shuningdek, uning fikrini ataylab noto‘g‘ri tushuntirishdan iborat bo‘ladi. *Dissertant tomonidan mutaxassisning*

bila turib noto‘g‘ri maslahat berganlik uchun faqat ma’muriy javobgarlikni belgilash maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Dissertant tomonidan mutaxassis va ekspertning umumiy jihati maxsus bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi va ish natijasidan manfaatdor bo‘lmasligi va quyidagi bir nechta farqlarini keltirib o‘tadi:

1) “maxsus bilim” atamasi faqat ekspertga nisbatan qo‘llaniladi. Mutaxassisga nisbatan yana bir tushuncha ko‘rsatilgan – “kasbiy bilim”. Adabiyotda bu masala e’tiborga olinmaydi va faqat “professional bilim” atamasi “maxsus bilim” tushunchasini ochish uchun ishlatilishi mumkin, ammo uning o‘rnini bosmaydi”. “Doctrine of Legal Education and Training” doktrinasiga asosan ko‘maklashuvchi shaxslar malaka oshirishi, zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Ayrim huquqshunos olimlar (A.A.Moxov, V.V.Molchanov, T.V.Saxnova) tomonidan *“maxsus bilim” va “zarur bilim” tushunchalari tahlil qilingan*. Tadqiqotchi tomonidan maxsus bilimga ekspert ega bo‘lsa, mutaxassis esa zarur bilimga ega bo‘lgan inson tushunilishi asoslantirilgan;

2) ekspert xulosasini tekshirishda mutaxassis tomonidan tushuntirishlar berishi mumkin;

3) mutaxassis sud ekspertizasi doirasida tadqiqotni talab qilmaydigan masalalarni oydinlashtirishda asosiy rol o‘ynashi mumkin, bunda sudga tor bilim sohasidagi mutaxassisning vakolatli fikrini bilish kifoya bo‘ladi;

4) ekspertlar oldiga savollar qo‘yilsa, mutaxassis oldiga savol qo‘yilmaydi;

5) ekspert yozma ravishda xulosa bersa, mutaxassis og‘zaki yoki yozma tarzda maslahat berishida ham ifodalanadi;

6) ekspertni jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyati mavjud bo‘lsa, mutaxassisda esa javobgarlik mavjud emas;

7) mutaxassis o‘z faoliyatini sud binosida ham, sud binosidan tashqarida ham amalga oshira oladi. Ekspert tadqiqot o‘tkazish uchun odatda maxsus jihozlangan joylar kerak bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar ishtirokini rivojlantirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar maqomining qiyosiy tahlili: ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi talqinida, ushbu shaxslar protsessual faoliyatini yanada takomillashtirish imkoniyatlariga oid jihatlari hamda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar ishtirokini raqamlashtirish masalalari tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan iqtisodiy protsessda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar doirasi va qonunchilikdagi o‘rni xorijiy davlatlar tajribasi asosida tahlil qilingan. Jumladan, odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar doirasi ayrim davlatlar *(Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Ukraina)da sudya yordamchisi va sud majlisi kotibini kiritgan bo‘lsa, ba’zi davlatlar (Turkmaniston, Moldova, Qirg‘iziston, Belarus, Turkiya, Litva, Polsha, Vengriya, Germaniya, Fransiya, Koreya, Xitoy, Kanada, Chexiya, Bolgariya, Italiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya)*da esa kiritilmagan va bir-biridan farq qilishi mumkin (dissertatsiya ilovasida keltirilgan).

Shuningdek, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda sudda olib boriladigan tilni bilmaydigan, tushunmaydigan (chet ellik) shaxslar ishtirok etganda sudya tarjimon

tayinlashga zarurat sezadi. *Tarjimonlarning huquq va majburiyatlari ichida ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan tarjimon nomzodini taklif qilish huquqidir. Bu xorijiy davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, Estoniya, Moldova, Belarus)* tajribasida mazkur huquq keltirilgan. Dissertant tomonidan tarjimani sifatli va aniq bo‘lishi uchun tarjimon nomzodini ishda ishtirok etuvchi shaxslar ham taklif qilish huquqini asoslantirgan.

Tadqiqotchi tomonidan bir nechta davlatlar *(Bolgariya, Vengriya, Yaponiya, Litva, Chexiya, Estoniya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Polsha, Turkiya, Armaniston, Belarus, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Ukraina, Turkmaniston, Tojikiston, Rossiya Federatsiyasi)* qonunchiligida *yolg‘on guvohlik berganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan va shu bilan birgalikda sud muhokamasi chog‘ida sud hal qiluv qarori (qarori) chiqargunga qadar ixtiyoriy* ravishda o‘z ko‘rsatuvlari, xulosalari yoki noto‘g‘ri tarjima qilinganligini e’lon qilsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi keltirib o‘tilganligi va taklif asoslantirilganligi hamda bu diniy me’yorlar bilan ham qoralanishi ya’ni “Qur’oni Karim” Baqara surasi 282-oyatida qarz olinganda yoki berilganda uning yozib qo‘yilishi hamda guvoh tariqasida ikkita erkak (agar ikkita erkak topilmagan taqdirda, bitta erkak va ikkita ayol) bo‘lishi mandub (ixtiyor) etilgan. Bundan tashqari, Niso surasining 135-oyatida Alloh yo‘lida to‘g‘ri guvohlik berish, shuningdek yolg‘on so‘zlamaslik va guvohlikdan bosh tortmaslik lozimligi bayon etilgan.

Guvoh o‘zi shaxsan bilgan ma’lumotlarni yetkazishi shart bo‘lgan qoida, bir qarashda, anglo-sakson huquqiga ma’lum bo‘lgan ko‘rsatuvlarda shaxsga faqat o‘zga shaxs so‘zlaridan ma’lum bo‘lgan yoki mish-mishlar *(egri dalil)ga asoslangan (hearsay rule) ma’lumotlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi umumiy huquq qoidasiga o‘xshash*, biroq o‘z mazmuniga ko‘ra undan farq qiladi. Ushbu qoida sudga guvohning, ish holatlari haqidagi bevosita o‘zi idrok etmagan, balki o‘zga shaxs so‘zlaridan olingan ko‘rsatuvlaridan foydalanishni taqiqlaydi. *“Hearsay rule” qoidasi guvohning faktlarni shaxsan bilishi zaruratidan shu bilan farq qiladiki, u “ikkinchi qo‘l”dan olingan ma’lumotlardan maqbul* dalil sifatida foydalanishni (ushbu qoidadan mavjud istisnolarni hisobga olgan holda) taqiqlaydi. Ingliz *fuqarolik protsessida guvohlik ko‘rsatuvi sudga affidavit (“affidavit”) – qasamyod ostida berilgan yozma ko‘rsatuv (agar guvoh sudga yetib kelishi imkoni bo‘lmasa) shaklida yoki “deposition” – sud muhokamasi boshlanishidan oldin sudya yoki sud tomonidan tayinlangan boshqa shaxs tomonidan qasamyod qilgan holda olingan guvohning yozma ko‘rsatuvi shaklida taqdim etilishi mumkin. Garchi bunday ko‘rsatuvlar yozma ravishda berilgan bo‘lsa-da, ular yozma dalillar emas, balki guvoh ko‘rsatuvlarining bir turi* hisoblanadi. Yozma guvohlik ko‘rsatuvlardan foydalanishning xuddi shu kabi imkoniyati Fransiya fuqarolik protsessual qonunchiligida ham mavjud, u sudga taraflarning tashabbusi bilan yoki sudyaning talabiga binoan taqdim etilgan yozma ko‘rsatuvlardan *(les attestations)* foydalanish imkonini nazarda tutadi. Affidavit singari, Fransiyada yozma guvohlik ko‘rsatuvlari guvoh shaxsan bilgan va o‘z ko‘rsatuvlarida xabardor qilayotgan faktlar ro‘yxatini o‘z ichiga olishi kerak bo‘ladi.

Dissertant tomonidan tarjima faoliyati faqat bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda emas, balki imo-ishora orqali amalga oshirilishi mumkinligini ham keltirib o‘tadi. *Imo-ishora tilidan tarjima qilish malakasiga ega bo‘lgan shaxs kar (soqov, kar-*

soqov) fuqarolar bilan muloqotda bo‘lganida karlarning imo-ishora tilidan va daktilologiya (qo‘l barmoqlari yordamida gaplashish)dan foydalangan holda imo-ishora tilini yoki barmoqlar yordamida takrorlangan nutqni tarjima qiladi. Tarjimonning malakasi uning tarjimaning zarur darajasini, uning to‘liqligi va aniqligini, shuningdek sud organlari uchun zarur bo‘lgan tezlikni ta’minlash qobiliyatiga qarab belgilanishi mumkin. Tadqiqotchi tomonidan tarjimon imo-ishora tilini ham zarur darajada bilishi kerakligi asoslantirilgan.

Ekspertning vazifasidan biri, sud tomonidan uning oldiga qo‘yilgan savollarga javob berishdir. *Ekspert o‘z xulosasini aniqlashtirish va to‘ldirish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar talab etilmaganda so‘roq qilinadi. Ekspert xulosasining ishonchliligini tekshirishning protsessual usullaridan biri bo‘lgan ekspertni chaqirish, so‘roq qilish protsessual usuli bilan bog‘liqdir. Ekspertni so‘roq qilish aynan xulosani aniqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi*, ya’ni ekspert xulosasini sud tomonidan tekshirish usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Dissertant tomonidan ekspertni so‘roq qilish lozimligi asoslantirilgan.

Hozirda odil sudlovni raqamlashtirish jarayoni ikkita asosiy shaklda amalga oshirilmoqda, birinchisi – elektron sudlov tizimini yaratish, ikkinchisi – sud qarorlari (hujjatlari)ni qabul qilishda sun’iy intellektdan foydalanishidir. Ko‘plab xorijiy davlatlarda sud ekspertlari faoliyatida bir qancha dasturlar, platforama (ilova)lardan foydalanib dalillarni isbotlash imkonini bermoqda. Bugungi kunda Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan ekspertiza tadqiqotlarida “EnCase forensic”, “Belkasoft Evidence Centre X” va “ACElab PC-3000 portable II” maxsus dasturiy ta’minotlaridan foydalanib kelinmoqda.

Dissertant tomonidan sud ekspertlari tadqiqotlari uchun *“Forensic Toolkit”* (har xil ma’lumotlarni qidirib qattiq diskni skanerlaydi hamda o‘chirilgan elektron pochta manzillarini aniqlashi mumkin va shifrlashni buzish) dasturi, yuzni tanib olish uchun*“OpenFace”, “FaceID” va “NEC” va “Cognitec”* texnologiyasi yordamida suratlar yoki videolardagi yuzlarni aniqlash va tanish shaxslar bilan moslashtirish imkoniga ega hamda rasmlar yoki videolardagi aniq obyektlar yoki naqshlarni aniqlash va kuzatish, har bir obyektni noma-nom aytib o‘tishi uchun vizual *“TensorFlow”* va *“Yolo”* (faqat bir marta qaraladi) ilovasi kabi ochiq manbali dasturlardan foydalanishni ham tahlil qilgan.

Tadqiqotchi tomonidan sud ekspertlari foydalanishi mumkin bo‘lgan mashhur hamkorlik platforma (ilova)lar (*Microsoft Teams, Slack, Zoom, Google Workspace (formerly G Suite), SharePoint, Jira, Confluence)*ni tahlil qilib, mazkur platformalar orqali sud ekspertlarining sud jarayonida masofaviy ishtirok etishi va unda qasamyod qabul qilish va yoki tasdiqlash bayonnomalari tuzish imkonini berishini asoslagan.

Bundan tashqari, dalillarni taqdim etishda 3D formatdagi fotografiya vositalaridan foydalanish va ushbu orqali ma’lumotlarning ekspertiza tekshiruvi uchun berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sudga olib kelish imkoniyati bo‘lmagan yoki olib kelinishi qiyin bo‘lgan dalillarni, shuningdek tez buziladigan ashyoviy dalillarni sud ular turgan joyda ko‘zdan kechirishi va tekshirishi joyi, vaqtini *3D formatda* fotosurat ko‘rinishida aks ettirish lozim. 3D modellashtirish xorijiy davlatlar, jumladan,

Hindiston, Yaponiya, Rossiya, Belarussiya, Xitoy, Germaniya, Shveytsariya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQShda qo‘llanilib kelinmoqda.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ekspert xulosasining mazmuni bilan sud majlisi oldidan tanishish huquqlarini ta’minlash maqsadida bunday shaxslarga ekspert xulosasining nusxasini yuborish tartibini belgilashni nazarda tutadi. *“Efficiency and expeditiousness”* doktrinasiga asosan nizolarni tezkorlik va samaradorlik bilan o‘z vaqtida hal etish. Dissertant tomonidan ekspert faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olgan holda ekspertlarni sud jarayoniga qisqa muddatlarda jalb etish va ularni xulosasini belgilangan muddatlarda olish, ekspertlarni tezda qidirib topish, ularni maxsus bilim darajasini aniqlash va ishga jalb qilishni qisqa vaqtlarda amalga oshirish, sud ekspertlari va ekspertiza to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks *avtomatlashtirish uchun “E-ekspertiza” yagona axborot tizimini joriy etilishi* asoslab berilgan.

Dissertant bundan tashqari, odil sudlovni amalga oshirishga ko’maklashuvchi shaxslardan biri tarjimon faoliyatini raqamlashtirish masalasiga ham e’tibor qaratadi. Tarjimonlarning sudda masofaviy ishtirokini ta’minlashda xorijiy davlatlarda bir qancha platformalar, ilovalar va boshqa dasturlardan ham foydalanilmoqda. Jumladan, *“Kudo”* ko‘p tilli uchrashuvlar va tadbirlar uchun mo‘ljallangan bulutga asoslangan platformadir. U tarjimonlarga dunyoning istalgan nuqtasidan ishlash imkonini beruvchi masofaviy sinxron tarjimani amalga oshirishini tahlil qilgan. Mazkur platforma orqali tarjimonlar tomonidan real vaqt rejimida inson tilidagi tarjimani ishtirokchilarning smartfonlari va kompyuterlariga uzatadi, shuning uchun har bir kishi istalgan joydan o‘zi xohlagan tilda qo‘shila olishini asoslantirgan. Bundan tashqari, mazkur tadqiqot ishida *ChatGPT, “ZipDX” va “Boostlingo”* virtual uchrashuvlarga qo‘shilish va real vaqtda tarjima xizmatlarini ko‘rsatish imkonini beradi hamda virtual sinxron yoki ketma-ket tarjimani ta’minlash amalga oshirib, *bir vaqtni o‘zida ham tarjima, ham imo-ishora* tarjimasidan foydalanilishni ham keltirildi.

AQShdagi yana bir tarjimonlar uchun zarur bo‘lgan platforma (ilova) *“Languageline”*dir. Bunda telefon yoki kompyuter orqali tarjimonlik qilish uchun malakali tarjimonni topish va telefon aloqasini o‘rnatish va tarjimonga xizmat uchun haq to‘lashni tartibga solishdir. Mazkur *“Languageline”* platformasida tarjimonlarning sertifikati yoki boshqa malakaga ega ekanligi aniqlanadi va unda aks ettirilishi belgilangan. Sudlarda telefon orqali tarjimonlik xizmatlari rasmiy sud sharoitida va bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadigan suddan tashqari suhbatlar uchun taqdim etilgan. *“Languageline” Services (LLS)* 140 dan ortiq tillarda mijozlarga tarjimonlik xizmatlarini ko‘rsatadi. *Xizmat har kuni 24 soat ishlaydi. Aksariyat hollarda (taxminan 98 foiz) ulanish xizmat so‘rovini olgandan keyin bir daqiqa ichida o‘rnatiladi.* Tarjimon uchun haq birinchi ulanish to‘lovi qilinadi va oylik minimal to‘lov belgilanadi. Tarjimon xizmatini oluvchiga ID raqami va shaxsiy kirish kodi taqdim etiladi. Shu bilan bir qatorda *“Closed Captioning and Transcription”*ga asosan onlayn shaklida tarjima amalga oshirilayotgan vaqtda kar va eshitish qobiliyati past bo‘lganlar va yozma transkripsiyani afzal ko‘rganlar uchun audioni yozma matnga aylantirish va real vaqt rejimida matnni ekran pastki qismida va har qanday tovush, ovoz va boshqa tarzda paydo bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, *“e-tarjimon.uz”* saytini va ilovasini yaratish hamda saytida tarjimonlarning ro‘yxati, familiya, ismi, sharifi, tarjima tillari, staji, surdo tarjimonlar, onlayn tilxat orqali jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirish, ushbu sayt orqali sertifikat tekshiriladi, tilni tarjima qilish darajasi aniqlanadi, tarjima narxlari keltirib o‘tiladi, xavsizlik darajasi belgilanadi. Ilovasi orqali real vaqt rejimida onlayn tarjima amalga oshirilish taklif etiladi.

Dissertant tomonidan odil sudlovga ko‘maklashuvchi shaxslardan biri bo‘lgan guvoh va uning ko‘rsatuvlarida axborot texnologiya vositalaridan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi. Guvohlarning yolg‘on ko‘rsatuv berishini oldini olish va ko‘rsatuv berishda axborot texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. Jumladan, *“lie detector”* qurilmasiga asosan shaxslarga bir qator savollar berilganda, ularning haqiqat yoki yolg‘on ekanligini aniqlash uchun fiziologik javoblarni aniqlash uchun ishlatiladi. *“Lie detector”*ning asosiy vazifasi yolg‘on gapirayotganda tanadagi fiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

“Lie detector” yordamida bir qancha holatlarni aniqlash mumkin:

Birinchisi, guvohlik ko‘rsatuvini berayotgan shaxsni yolg‘on gapirayotganligini yurak urishi *(Heart Rate (Cardiovascular Activity))*ni eshitish orqali aniqlash mumkin. Ya’ni bunda uning ko‘kragiga o‘rnatilgan elektrodlar yoki sensorlar yordamida odamning yurak urish tezligini o‘lchaniladi. Shaxs yolg‘on guvohlik ko‘rsatuvini berayotgan bo‘lsa, asabiylashish yoki stress tufayli yurak urish tezlashishi mumkin.

Ikkinchisi, shaxsni nafas olish *(Respiration (Breathing)* tezligini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Bunda shaxsni ko‘krak va qorin bo‘shlig‘iga datchiklar o‘rnatish orqali odamning nafas olish tezligini nazorat qiladi. Agar shaxsda sayoz yoki tartibsiz nafas olish holati kuzatilsa yolg‘onni ko‘rsatuv berayotgan bo‘lishi mumkin.

Uchinchisi, terining elektr o‘tkazuvchanligini o‘lchaydigan galvanik terining reaktsiyasi *(Galvanic Skin Response)*ga binoan shaxs yolg‘on guvohlik ko‘rsatuvini berayotganda tashvishlanishi yoki asabiylashishi natijasida tez-tez uchraydigan terlash terining o‘tkazuvchanligiga ta’sir qilishi mumkin.

To‘rtinchisi, qon bosimi *(Blood Pressure)* orqali guvohlik ko‘rsatuvini haqiqat yoki yolg‘on ekanligini aniqlash. Unda qon bosimining oshishi asabiylashish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Dissertant ba’zi xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilgan holda, XXRning qonunchiligiga binoan guvohlar sud majlisida shaxsan ko‘rsatuv berishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilganligini o‘rgangan. Biroq guvohning betobligi, tabiiy ofatlar hamda boshqa fors-major holatlarida sudning ruxsati bilan guvoh videokonferensaloqa rejimida ko‘rsatmalar berishi mumkin. Ukraina Respublikasida ishda ishtirokchilarning e’tirozlari bo‘lmasa, guvoh sud *majlisida videokonferensaloqa orqali ishtirok etishi mumkin. Sud, agar guvoh kasalligi, keksaligi, nogironligi, yoxud uzrli sabablar bo‘lganda sudga kelmasa, ishda ishtirok etadiganlarning e’tirozlaridan qat‘i nazar, videokonferensaloqa* orqali sudda ishtirok etishga ruxsat berishi mumkin (XPK 66-moddasi). Qozog‘iston Respublikasida guvohning *kasalligi, keksaligi, nogironligi, turgan joyining uzoqligi yoki boshqa uzrli sabablar bo‘lganda sudga kelmaganligi oqibatida o‘zi joylashgan hududdagi sud tomonidan yoki texnik aloqa vositalaridan foydalangan holda so‘roq qilinishi mumkin* (FPK 81-moddasi). Bolgariya Respublikasida *sud chaqiruv bo‘yicha kelmasa sud unga jarima* soladi. Ushbu

davlatlarning tajribasidan ko‘rinadiki, agar guvohning *“kasalligi, keksaligi, nogironligi yoki boshqa uzrli deyilgan sabablariga ko‘ra chaqiruv yuzasidan sudga kela olmasa, u turgan joyda sud yoki videokonferensaloqa vositasi orqali so‘roq qilnadi”* deb keltirilgan (FPK 85-moddasi).

XULOSA

“Iqtisodiy protsessda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar ishtirokini takomillashtirish (nazariy-huquqiy va protsessual jihatlari)” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot natijasi bo‘yicha quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy nazariy xulosalar:

1. Odil sudlovning vazifasi nizoli vaziyatlarga yechim beradigan qonuniy, asosli va adolatli sud hujjatlirini chiqarishdan iboratdir. Odil sudlovni ta’minlashda bir qancha asosiy konsepsiyalar dunyo davlatlari tajribasida ilgari surilmoqda va mazkur konsepsiyalarning ustuvor jihatlarini mamlakat amaliyotida joriy etish jadal sur’atlarda olib boriladi.

Birinchisi, dalillar va isbotlash qonuniy bo‘lishi, qonuniylikni protsessual odillik orqali qurish mumkinligi, barcha jarayonlar qonun (kodeks)dagi normalarga asoslanishi, dalillarni eshitish, teng imkoniyatlar ega bo‘lish va taraflarga bir xil hurmatda bo‘lish kerakligi ta’kidlangan *“procedural justice” (protsessual odil sudlov)* konsepsiyasi va uning elementlari sifatida insonlarning qadr-qimmatini hurmat qilish *(respect)*, uchrashuv vaqtida ishtirokchilarga ovoz berish *(voice-so‘z, ovoz berish)* huquqini taqdim etish, qaror qabul qilishda xolis va shaffof bo‘lish *(neutrality)*, ishonchli hisoblangan *(trustworthiness)* asoslar (dalillar)ni topshirish keltirib o‘tiladi.

Ikkinchisi, *“procedural fairness” (protsessual adolat)* konsepsiyasi va unda sud bilan aloqada bo‘lganlar sud jarayonidan, atrofdagilardan va insonlarning muomalasidan prosessual adolat haqida tasavvur hosil qiladi. Ushbu konsepsiyada ichki ishonch, insof, vijdon va insonparvarlik qoidalariga, real sharoit, holat va vaziyatga qaraladi. Mazkur konsepsiyasining asosiy elementlari sifatida *“voice”* taraflarning o‘z fikr-mulohazalarini bildirishi orqali ishtirok etish layoqati, *“neutrality”* xolis qaror qabul qilishda asosiy tamoyillarni qo‘llashi, *“respect”* insonlarga xushmuomala va hurmat bilan munosabatda bo‘lish, *“trust”* qaror qabul qiluvchining ichki ishonchiga asoslanishi, *“understanding”* sud jarayoni ishtirokchilari sud qarorlari va ularni qanday qabul qilinishini tushunishi, *“helpfullness”* taraflar sud ishtirokchilarini qonunda ruxsat etilgan darajada shaxsiy holatiga qiziqqan deb bilishiga e’tibor qaratiladi. *“Procedural fairness” (protsessual adolat)* konsepsiyasiga eng ko‘p e’tibor qaratadigan va sudlar faoliyatida qo‘llaydigan davlatlar sifatida AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar, Hindiston va Yangi Zelandiya keltirib o‘tiladi.

Muallif O‘zbekistonda ham iqtisodiy sud ishlarini yuritishda iqtisodiy sudlar asosan *“procedural justice” (protsessual odil sudlov)* konsepsiyasi bilan bir qatorda *“procedural fairness” (protsessual adolat)* konsepsiyasini rivojlantirishni va qo‘llashni ta’kidlab o‘tadi. Bu konsepsiyani ilgari surish natijasida quyidagi natijaga erishish mumkin bo‘ladi:

1) ish bo‘yicha dalillar tarjimonlarning tarjimasi, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning xulosalari va mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari) bilan aniqlanishi orqali iqtisodiy sudlar tomonidan qabul qilinayotgan hal qiluv qarori va qarorini qonuniy, asosli va adolatli chiqarilishiga erishiladi;

2) mazkur konsepsiyada tarjimonlarning tarjimasi, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning xulosalari va mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari)ning to‘g‘ri, to‘liq va xolis bo‘lishi natijasida nizolarni birinchi instansiyani o‘zida hal qilinishi hamda ularni yuqori instansiyalarda ko‘rishda ish yuklamasini kamaytirish va vaqtni tejashga olib keladi;

3) tarjimonlarning tarjimasi, guvohlarning ko‘rsatuvlari, ekspertlarning xulosalari va mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari)ga baho berishda iqtisodiy sud sudyalari uchun ichki ishonch va insonparvarligi asosida nizoni ko‘rib chiqish, real holatlarni eshitish va hal qilishda muhim hisoblanadi;

4) O‘zbeksiton Respublikasi Konstitutsiyasidagi ijtimoiy adolatlilik prinsipini amalda ro‘yobga chiqarish hamda “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunda belgilangan sudning asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan.

2. Bugungi kunda dunyoda iqtisodiy sud ishlarini yuritishda bir qancha doktrinalar mavjud. Jumladan, *“independence and impartiality - mustaqillik va xolislik”, “impartiality of experts and interpreters – ekspert va tarjimonlarning xolisligi, “witness testimony – guvoh ko‘rsatuvi”, “right to confrontation - qarama-qarshilik huquqi” “collaboration and cooperation – hamkorlik va koperatsiya”* va boshqa doktrinalar (dissertatsiya va avtoreferatda batafsil) keltirilgan. Muallif tomonidan dissertatsiya doirasida iqtisodiy protsessual huquq (qonunchilik)da ko‘rsatuv berish va qasamyod qabul qilish (guvohning ayrim ma’lumotlarni oldindan bilib olib, ko‘rsatuvlarida shu detallarga urg‘u berishga tayyorgarlik qilgan holda sudga kelishini oldini olish) uchun mumkin bo‘lgan *“Doctrine of Witness Testimony”* doktrinasini, guvoh ko‘rsatuvlarini yuzlashtirish orqali olish va so‘roq qilish hamda to‘g‘riligini tekshirish imkonini beruvchi *“Doctrine of Right to Confrontation”* doktrinasini hamda iqtisodiy protsessga ko‘maklashuvchi shaxslarni jalb qilish, ularni rag‘batlantirish, ishtirokini va ishlar samaradorligini oshirish, hamkorlikda ma’lumotlar almashinuvini ta’minlashga xizmat qiluvchi *“Doctrine of Collaboration and Cooperation”* doktrinasini va undagi g‘oyalarni ilgari suradi hamda ushbu doktrinalardagi g‘oyalar iqtisodiy sud ishlarini yuritish sohasidagi munosabatlarni yanada tartibga solishga qaratilgan. Bu doktrinalarni ilgari surish natijasida O‘zbekistonda iqtisodiy sud ishlarini yuritishda quyidagi natijaga erishish mumkin bo‘ladi:

Birinchidan, guvohning ko‘rsatuvini aniqlashtirish va qasamyod qilish lozim (guvoh ko‘rsatuvini oldindan tayyorgarlik qilishini sindiradi);

Ikkinchidan, guvohni yuzlashtirish orqali so‘roq qilish va ko‘rsatuvini to‘g‘riligini tekshirish imkonini beradi;

Uchinchidan, iqtisodiy sud ishlarini yuritish jarayoniga ko‘maklashuvchi shaxslarni tezda jalb qilish, ularni rag‘batlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, organlar ichida hamkorlikni kengaytirish va ishlar samaradorligini oshirish.

3. Muallif tomonidan odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar, tarjimon va mutaxassis tushunchalariga quyidagicha ilmiy ta’riflar ishlab chiqildi:

a) *Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar* – iqtisodiy sudlar (sudyalar) tomonidan yoki ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosiga binoan ish bo‘yicha jalb qilingan, ish natijasidan manfaatdor bo‘lmagan guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlardir.

b) *Tarjimon* – tarjima qilish uchun zarur tillarni biladigan, *voyaga yetgan, ish natijasidan manfaatdor bo‘lmagan* hamda sud tomonidan tayinlangan yoki *ishda ishtirok etuvchi shaxslar iltimosiga binoan sud majlisida ishtirok etish* uchun jalb qilish to‘g‘risida ajrim chiqarilgan shaxs tarjimondir.

c) *Mutaxassis - tegishli oliy ma’lumotga, alohida hollarda esa o‘rta-maxsus, kasb-hunar ma’lumotiga ega bo‘lgan,* maslahatlar (tushuntirishlar) berish va ilmiy-texnika vositalarini qo‘llashda yordam ko‘rsatish yo‘li bilan dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashda ko‘maklashish maqsadida fan, texnika, san’at yoki hunar sohasida *zarur* bilim va malakaga ega bo‘lgan, voyaga yetgan, ish natijasidan manfaatdor bo‘lmagan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun sud tomonidan mutaxassis sifatida jalb qilinishi mumkin.

4. Sudya yordamchisining suddagi o‘rnini va vakolatini belgilash, olimlar tomonidan bildirilayotgan fikr va mulohazalarni yanada bir joyga to‘plash natijasida bir xulosaga kelish, sudya yordamchisining sud tizimidagi obro‘-e’tiborini yana yuksaltirish maqsadida quyidagi taklif ilgari suriladi:

sudya yordamchisi (sud majlisi kotibi)ni iqtisodiy protsessning odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar qatoriga kiritib bo‘lmaydi, shuningdek yuridik texnik qoidalarga rioya qilgan holda *IPKda sud tarkibi qatoriga kiritish (alohida subyekt sifatida) va huquqiy maqomini alohida “Sud tarkibi”nomli bobga tegishli bo‘lgan normada aks ettirish lozim*.

5. Odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning protsessual huquq layoqati va protsessual muomala layoqati tushunchalariga quyidagicha ta’rif berildi:

Protsessual huquq layoqati – odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning sudda protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi.

Protsessual muomala layoqati – sudda o‘z protsessual huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish layoqati voyaga yetgan (guvohdan tashqari) odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarga tegishlidir. Voyaga yetmagan shaxs (guvoh)larning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi.

6. IPKda odil sudlovni amalga oshirishshga ko‘maklashuvchi shaxslarni alohida maqomga olib chiqish va ularning huquq va majburiyatlari aniq belgilash maqsadida *“odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar”deb nomlangan alohida bob sifatida* belgilash taklifi keltirildi.

7. *“e-tarjimon.uz”* saytini va ilovasini yaratish taklif etiladi hamda saytida tarjimonlarning ro‘yxati, familiya, ismi, sharifi, tarjima tillari, staji, surdo tarjimonlar, onlayn tilxat orqali jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirish, ushbu sayt orqali sertifikat tekshiriladi, tilni tarjima qilish darajasi aniqlanadi, tarjima narxlari keltirib o‘tiladi,

xavsizlik darajasi belgilanadi. Ilovasi orqali real vaqt rejimida onlayn tarjima amalga oshiriladi.

II. Qonun ijodkorligi sohasidagi taklif va xulosalar:

1. IPKni 54-moddasi birinchi qismiga quyidagi tahrirda to‘ldirish taklif etildi:

“guvoh sudga chaqiruv bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashga va vaqtni yo‘qotganligi sababli pul kompensatsiyasini olishga haqli”.

2. IPKning 54-moddasi ikkinchi va uchinchi qismini quyidagi tahrirda to‘ldirish taklif etildi:

“Agar guvoh sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko‘ra sud chaqiruvi bo‘yicha kelmasa, shuningdek ko‘rsatuvlar berishdan bo‘yin tovlasa, unga nisbatan ushbu Kodeksning 14-bobida belgilangan tartibda sud jarimasi solinishi mumkin”.

“Bu jarima solinishi guvohni sudga kelish va ko‘rsatuvlar berish majburiyatidan ozod etmaydi”.

3. IPK 56-moddasi birinchi qismi va O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasi birinchi qismiga quyidagi mazmundagi to‘ldirish taklif etildi:

“Ekspert uning xulosasi e’lon qilinganidan keyin u bo‘yicha zarur tushuntirishlar berishga haqli, shuningdek, ishda ishtirok etayotgan shaxslar va sudning qo‘shimcha savollariga javob berishga majbur. Shuningdek, ekspert, qo‘shimcha savollarga bergan javoblari bilan birga sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi shart bo‘lgan, sud tomonidan uning xulosasi noto‘g‘ri talqin qilinganligi to‘g‘risida ariza berishga haqli”.

4. IPK 58-moddasi birinchi qismiga quyidagi tahrirda qo‘shimcha kiritish taklif etildi:

“Agar u sud muhokamasi yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o‘z ona tilida maslahat (tushuntirish) berish hamda tarjimon xizmatidan bepul foydalanish”.

5. IPK 58-moddasi beshinchi qismini quyidagi tahrirda to‘ldirish taklif etildi:

“Mutaxassis bila turib noto‘g‘ri maslahat (tushuntirish) berganlik uchun ma’muriy javobgarlikka tortiladi”.

6. IPK 59-moddasi ikkinchi qismiga quyidagi tahrirda qo‘shimcha kiritish taklif etildi:

“Tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirok etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralarini tushunadigan shaxsga nisbatan ham qo‘llaniladi”.

7. IPK 60-moddasi birinchi qismiga quyidagi tahrirda to‘ldirish taklif etildi: *“ishda ishtirok etuvchi shaxslar iqtisodiy sudga tarjimon nomzodini taklif qilish huquqiga ega”.*

8. IPKning 60-moddasi uchinchi qismini quyidagicha band bilan to‘ldirish taklif etildi:

“Belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar tarjimon sifatida jalb qilinishi mumkin emas”.

9. IPKning 60-moddasi birinchi qismiga quyidagi tahrirda qo‘shimcha kiritish taklif etildi:

“Tarjimon: protsessual harakatlarni amalga oshirishi natijasida qilgan tarjimasi uchun haq olish va majburiyatlari doirasidan tashqaridagi ishlarni bajarganliklari va o‘zi yonidan qilgan xarajatlarni qoplanishini talab qilish huquqiga ega”.

10. IPKning 80-moddasi to‘rtinchi qismiga quyidagi mazmundagi to‘ldirish taklif etildi:

“Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi ajrimda ekspert ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar davlat siri, tijorat siri va boshqa qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlarini o‘z ichiga olgan bo‘lsa”.

11. IPK 117-moddasi uchinchi qismini quyidagi tahrirda to‘ldirish taklif etildi:

“Mehnat munosabatlariga kirishmagan guvohlar odatdagi mashg‘ulotlaridan qoldirilganligi uchun amalda sarflagan vaqti va belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqilgan holda haq oladi”.

12. IPKda guvohni so‘roq qilish tartibini belgilash maqsadida quyidagi prim moddani kiritish taklif etildi:

“168^{1}-modda. Guvohni so‘roq qilish tartibi

Har bir guvoh alohida so‘roq qilinadi. So‘roq qilinmagan guvohlar ishni muhokama qilish vaqtida sud majlisi zalida bo‘lishi mumkin emas. Raislik qiluvchi guvohni so‘roq qilishdan oldin uning shaxsini, yoshini, mashg‘uloti turini, ushbu ishga aloqasini hamda taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarini aniqlaydi, shuningdek uni bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasiga muvofiq javobgar bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantiradi. Shundan keyin raislik qiluvchi guvohga: “Men, (familiyasi, ismi, otasining ismi), bugungi sudda ko‘rib chiqilayotgan ish bo‘yicha menga shaxsan ma’lum bo‘lgan ma’lumotlar va materiallar to‘g‘risida to‘g‘ri va to‘liq ko‘rsatuv berish majburiyatini zimmamga olaman va ish yuzasidan o‘zimga ma’lum bo‘lgan hamma narsani sudga aytib berishga qasamyod qilaman” deb oshkora qasamyod qilishni taklif etadi. Guvohdan unga o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi to‘g‘risida tilxat olinadi. Qasamyodning matni va tilxat sud majlisi bayonnomasiga qo‘shib qo‘yiladi. Raislik qiluvchi guvohga ish bo‘yicha shaxsan o‘zi bilgan barcha ma’lumotlarni sudga aytib berishni taklif qiladi. Shundan so‘ng guvohga savollar berilishi mumkin. Guvoh kimning arizasi bo‘yicha chaqirilgan bo‘lsa, shu shaxs va uning vakili birinchi bo‘lib, keyin esa ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar guvohga savollar beradi. Sudning tashabbusi bilan chaqirilgan guvohga savollarni birinchi bo‘lib da’vogar beradi. Sudya (sudyalar) guvohga u so‘roq qilinayotganida istalgan vaqtda savol berishga haqlidir. So‘roq qilingan guvohlar ishning muhokamasi tamom bo‘lguniga qadar sud majlisi zalida qolishi kerak. Sud so‘roq qilingan guvohlar ishning muhokamasi tamom bo‘lmasidan oldin sud majlisi zalidan chiqib ketishiga taraflarning roziligi bilan ruxsat berishi mumkin. Zarur bo‘lgan taqdirda sud guvohni o‘sha majlisning o‘zida yoki kelgusi majlisda takroran so‘roq qilishi, shuningdek guvohlarning ko‘rsatuvlaridagi ziddiyatlarni aniqlash uchun ularni yuzlashtirishi mumkin. Shuningdek, yoshi tufayli qasamyodning mazmunini tushuna olmaydigan shaxslar guvoh sifatida jalb etilgan taqdirda, bunday guvohlar qasamyod qabul qilmasdan so‘roq qilinadi”.

13. IPKga ekspertni so‘roq qilish tartibini takomillashtirish maqsadida quyidagi prim moddani kiritish taklif etildi:

“168[2]-modda. Ekspertni so‘roq qilish

Ekspertning xulosasi sud majlisida o‘qib eshittiriladi, shundan keyin xulosani tushuntirish va to‘ldirish maqsadida ekspertga savollar berilishi mumkin. Ekspertiza kimning arizasi bo‘yicha tayinlangan bo‘lsa, o‘sha shaxs va uning vakili birinchi bo‘lib, keyin esa ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar savollar beradi. Sudning tashabbusi bilan tayinlangan ekspertga birinchi bo‘lib da’vogar savollar beradi. Sudya (sudyalar) ekspert so‘roq qilinayotganida unga istalgan vaqtda savollar berishga haqli”.

14. Jinoyat kodeksi 238-moddasi to‘rtinchi qismiga quyidagi tahrirda to‘ldirish taklif etildi:

“guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimon surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi jarayonida sud hukmi yoki qarori chiqarilgunga qadar o‘z ko‘rsatuvi, xulosasi yoki noto‘g‘ri tarjima qilganligi to‘g‘risida o‘z ixtiyori bilan xabar qilgan va jinoyatni ochishga yordam bergan bo‘lsa jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi”.

15. Sud tarjimonlari faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida *“Sud tarjimoni to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilish kerak.*

16. O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonun 15-moddasi Sud ekspertining huquqlari birinchi qismi o‘ninchi xatboshiga qo‘shimcha taklif sifatida:

*“sud eksperti tegishli sud-ekspertiza tashkiloti (muassasa) rahbariga sud ekspertizasini o‘tkazishga boshqa ekspertlarni jalb etish haqida iltimosnoma kiritishga, agar bu tadqiqotlar o‘tkazishga va xulosa berish uchun zarur bo‘lsa”*nomli xatboshi bilan to‘ldirish taklif etildi.

17. O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonun 11[1]-moddasi Sud eksperti qasamyodi bilan to‘ldirish taklif etildi:

Sud eksperti belgilangan tartibda tegishlicha guvohnoma yoki sertifikatga ega bo‘lgandan so‘ng tegishli komissiyaning majlisida quyidagi mazmunda qasamyod qiladi:

“Men o‘z kasbiy burchimni halol va vijdonan bajarishga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, qonuniylik, mustaqillik va sud-ekspertlik faoliyatining boshqa prinsiplariga, shuningdek sud ekspertining kasbiy etikasi qoidalariga qat’iy rioya etishga, o‘z bilimlarimdan to‘liq, asosli va xolisona xulosa berish uchun foydalanishga tantanali qasamyod qilaman”.

18. Ekspertlarni sud jarayoniga qisqa muddatlarda jalb etish va ularni xulosasini belgilangan muddatlarda olish, ekspertlarni tezda qidirib topish, ularni maxsus bilim darajasini aniqlash va ishga jalb qilishni qisqa vaqtlarda amalga oshirish, sud ekspertlari va ekspertiza to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish hamda ekspertiza harakatlarni amalga oshirishga aloqador tashkilotlar bilan axborot hamkorligining barcha turlarini ta’minlash uchun mo‘ljallangan *“E-ekspertiza” yagona axborot tizimini joriy etish taklif etildi.*

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

KHUDOYNAZAROV DADAKHON AVAZ UGLI

IMPROVING THE PARTICIPATION OF PERSONS ASSISTING IN THE IMPLEMENTATION OF JUSTICE IN THE ECONOMIC PROCESS (THEORETICAL-LEGAL AND PROCEDURAL ASPECTS)

12.00.04 - Civil procedural law. Economic procedural law.
Arbitration process and mediation

ABSTRACT
of doctoral (Doctor of Philosophy) dissertation on legal sciences

Tashkent – 2024

The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under number №B2021.3.PhD/Yu589

The dissertation is prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website of the Scientific Council (www.tsul.uz) and Information educational portal «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Supervisor:	**Esanova Zamira Normurotovna** Doctor of Science in Law, Professor
Official opponents:	**Yakubov Axtam Nusratiloevich** Doctor of Science in Law, Associate Professor
	Berdiyarov Raxmatjon Tojinorovich Doctor of Philosophy in Law
The leading organization:	**Lawyer's training center under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held on 16 march, 2024 at 10:00 at the Session of the Scientific Council DSc.07/30.12/2019.Yu.22.01 at the Tashkent State University of Law (Address: 100047, Sayilgokh street, 35. Tashkent city. Phone: (99871) 233-66-36; Fax: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

The doctoral dissertation is available at the Information Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under No. 1240), (Address 100047, Amir Temur street, 35. Tashkent city. Phone: (99871) 233-66-36).

The abstract of the dissertation distributed on 29 February, 2024.

(Registry protocol No 42, on 29 February, 2024).

I.R. Rustambekov
Chairman of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

D.Yu. Khabibullaev
Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Candidate of Science in Law, Professor

B.K. Xodjayev
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

INTRODUCTION (abstract of the doctoral (PhD) dissertation)

The actuality and relevance of the dissertation theme. The number of business entities and investors in the world is increasing day by day. To create all necessary conditions for citizens and business entities to be able to protect their rights and legal interests in courts, to ensure the equality of parties in disputes, fairness between participants in the process of court proceedings, and achieve legal, reasonable fair court decisions and expanding opportunities for remote participation in court hearings are becoming essential in the world. In the "Economic Freedom Index – 2023" rating published by the Heritage Foundation, Uzbekistan took 109th place among 176 countries with a score of 56.5. According to the methodology of the index, it was shown that the economy of Uzbekistan remained mainly in the group of "non-free countries". In particular, the worst indicator was the direction of "court efficiency" (-37.8).[6] This shows the need to further improve the scope, legal status and organizational-legal foundations of the judicial system, its participants (persons who assist in the administration of justice) and to introduce digital technologies into the activities of the courts.

To provide openness and transparency in the activities of courts in the world, to create wide opportunities for those who apply to the courts, to further increase the strong confidence of citizens and entrepreneurs in the justice system, to improve the system of online resolution of economic disputes and to introduce artificial intelligence technologies into their activities, as well as economic court cases of persons who assist in the implementation of justice is of great importance. In this case, determining the procedural status of persons assisting in the implementation of justice, and creating an opportunity for full implementation of their rights and obligations in the judicial process are defined as primary tasks. Currently, artificial intelligence technologies (3D, Forensic Toolkit, Yolo, ChatGPT, Kudo, Boostlingo, Languageline, and Lie detector) are being used in the activities of individuals assisting in the implementation of justice.

In our republic, significant work is being done on the full satisfaction of entrepreneurs from the courts and the widespread introduction of artificial intelligence technologies into the activities of the courts. In the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, adopted on January 28, 2022, it is determined to radically increase the level of access to justice by business entities by eliminating bureaucratic obstacles, and step-by-step digitization of the judicial system.[7] According to statistical data, 436 cases involving persons assisting in administering justice were conducted in 2021, 1068 in 2022, and 713 in 2023 (11 months)[8]. Of these, 111 with witness participation in 2021, 206 in 2022, 255 in 2023, 36 with expert participation in 2021, 77 in 2022, 58 in 2023, 272 with specialist participation in 2021, 753 cases in 2022, 370 cases in 2023, 17 cases with interpreter participation in 2021, 32 cases

[6] https://www.heritage.org/index/country/uzbekistan
[7] National database of legal documents of the Republic of Uzbekistan, 03.01.2024., No. 06/24/221/0003.
[8] Letter of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, 04.12.2023. No.07/15-445.

in 2022, and 30 cases in 2023 were considered.[9] It can be seen from this that further improvement of the participation and status of persons assisting in the administration of justice, review of the scope of participants, determination of subjectivity of law, enrichment with new articles related to interrogation, the introduction of a single information system designed to ensure all types of information cooperation between courts and experts, expansion of rights and obligations, and other issues are not expressed in the norms of procedural law, these issues require scientific and theoretical research.

This dissertation is based on the Economic Procedural Code of the Republic of Uzbekistan (2018), Laws "On Forensic Expertise" (2010), "On International Commercial Arbitration" (2021), "On Mediation" (2018), "On Arbitration Courts" (2006), and the dissertation research serves to a certain extent the implementation of the tasks defined in decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PR-6256 dated July 5, 2021 "On measures to improve the forensic expert system in the Republic of Uzbekistan" and the Decree No. PR-11 dated January 16, 2023 "On additional measures to further expand access to justice and increase the efficiency of the courts" and other legal documents related to the topic.

The compliance of the research on the priority directions of scientific and technological development of the republic. This dissertation is completed in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state".

